

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar – dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan **14585,8 mlrd. so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar-dekabr oylariga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi,* **108,9 %** ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi % da




* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **1250,0 mlrd.so'mni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **8,6 %** ni tashkil etdi, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar-dekabr oylariga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi **78,1 %** ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarkibi, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat – **47,4 mlrd so'm**, tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – **227,1 mlrd so'm** xom neft va tabiiy gaz qazib olish – **975,5 mlrd so'm** ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarkibining fizik hajm indeksi, % da



Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat – **331,4 %** ga, oshgan. Tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – **37,5 %** ga, Xom neft va tabiiy gaz qazib olish – **96,6 %** ga, kamayganligini kuzatish mumkin.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(yanvar-dekabr)



 Tabiiy gaz qazib olish,
mln.kub.m



 Neft qazib olish
ming.t



 Gaz kondensati,
ming.t





 Shag'al, ming.t

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan

sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda neft 82,2 %, tabiiy gaz 92,4 %, shag'al 66,1 %,
ga, gaz kondensati 94,0 % ni tashkil etdi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasidagi ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarinig o'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishslash sanoati).

Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **12845,1** mlrd so'mni (jami ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari hajmining **88,0 %** ni) tashkil etdi, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar-dekabr oylariga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi **114,4 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi (yanvar-dekabr)




- Oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish
- To'qimachilik kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish
- Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallar qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish
- Koks va neftni qayta ishslash mahsulotlarini ishlab chiqarish
- Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish
- Boshqa nometal mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish
- Mashina va uskunalarini ishlab chiqarish tamirlash va o'rnatish avtotransport vositalari treylerlar yarim priseplar va boshqa tayyor buyumlarini ishlab chiqarish
- Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %

**O'rta-yuqori
texnologiyali**




2018 yil
yanvar-dekabr



**O'rta-quyi
texnologiyali**



2019 yil
yanvar-dekabr



Yuqori texnologiyali



Quyi texnologiyali



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ning ulushi 0,1 % ni (2018- yil yanvar-dekabr oylarida -0,1 %) o'rta –yuqori texnologiyali-1,7 % (1,8) o'rta quyi texnologiyali -57,1 % (48,7) va quyi texnologiyali-41,1 % (49,4 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan
--	---	--

Aroq (ming litr 100% spirit)

1803,6



1534,1

Uzum musallasi (vino) (ming litr)

516,4



577,6

Un mahsuloti (ming tonna)

82,5



82,4

Paxta tolasi (ming tonna)

87,0



83,1

O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.

22,3



22,3

Avtomobil benzini, ming t.

710,0



751,2

Dizel yoqilg'isi, ming t.

594,5



725,4

Suyultirilgan propan va butan, ming, t

8,6



12,3


Paxta chigit , ming.t.

128,3




125,8

Yanvar-dekabrga nisbatan, foizda




Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda dizel yoqilg'isi **122,0 %**, avtomobil benzini **105,8 %**, uzum musallasi **111,8 %** ga o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sganligini, paxta tolasil **95,6 %** ga un mahsuloti **99,9 %** ga kamayganligini kuzatish mumkin.


O'simlik yog'i




Dizel yoqilg'isi




Avtomobil benzini




Un mahsuloti




Paxta tolasi




Uzum musallasi (vino)



Aroq



Paxta chigit'i



O'sish sur'atining kamayishi

O'sish sur'atining ko'payishi

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **358,1 mldr. so'mni** (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **2,5%** ni) tashkil etdi.



Fizik hajm indeksi **112,8%**



2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan
---	--	---

Elektroenergiya mln. kVt/s.

6,5



5,5


927,1





799,4

Issiqlik energiyasi, ming Gkal

Yanvar-dekabrga nisbatan, foizda



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda issiqlik energiyasi **86,2 %**, elektrenergiya **84,0 %** o'tgan yilning tegishli davriga kamayganligini kuzatish mumkin.



O'sish sur'atining kamayishi



O'sish sur'atining ko'payishi

bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish, va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Ishlab chiqarish
hajmi **132,6**
mlrd.so'm

Fizik hajm
indeksi **90,7 %**



KUN UZ

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan
---	--	---

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm

38064,1



45140,1

Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - mln so'm

206,3



340,6


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish, va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar **118,6 %** ni, axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar **165,1 %** ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **5077,5** mlrd.so'mni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,7 %** ga o'sishi ta'minlandi, jami sanoatdagi ulushi esa **34,8%** ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Yanvar-dekabr oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

■ 2018 ■ 2019




2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining **60,2 %** dan 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida **63,6 %** ga oshishi kuzatilmogda.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan **834,8** mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, umumiyl ishlab chiqarishdagi ulushi **5,7 %** ni tashkil etdi.

2019 -yil yanvar-dekabr oyida umumiyl ishlab chiqarishdagi ulushi




Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish eng ko'p Kogon tumanida **285,4 mlrd** so'mni, Kogon shaharda **242,0 mlrd** so'mni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar	Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi	Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi %
Buxoro shahar	105,9	5,6
Kogon shahar	242,0	42,3
Olot tumani	-	-
Buxoro tumani	47,2	8,4
Vobkent tumani	117,5	32,3
G'ijduvon tumani	1,0	0,1
Kogon tumani	285,4	52,7
Qorako'l tumani	8,3	2,1
Qorovulbozor tumani	-	-
Peshko' tumani	-	-
Romitan tumani	26,1	1,9
Jondor tumani	1,4	0,3
Shofirkon tumani	-	-
Buxoro viloyati	834,8	5,7


2019 yil yanvar –dekabr oylarida tuman (shahar)lar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumanida **6403,1 mln so'm**, Buxoro shahar **1891,0 mln**, Romitan tumani **1391,1 mln**, Gijduvon tumani **867,3 mln** so'mni tashkil etdi.




**2019 yil yanvar-dekabr
2018 yil yanvar-dekabrga
nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi foizda**

■ Buxoro shahar	■ Kogon shahar	■ Olot	■ Buxoro	■ Vobkent
■ G'ijduvon	■ Kogon	■ Qorako'l	■ Qorovulbozor	■ Peshko'
■ Romitan	■ Jondor	■ Shofirkon		




Xududlar kesimida, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning viloyatdagi ulushi, jamiga nisbatan foizda.

(Yanvar-dekabr 2019 yil)



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumanida jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **43,9 %**, Buxoro shahar **13,0 %**, Romitan tumani **9,5%**, G'ijduvon tumani **5,9 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida tuman (shahar)lar kesimida iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi




Viloyat iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Buxoro shahar **990,7 mlrd** (viloyat iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmning **19,5 %**), Qorovulbozor tumani **967,2 mlrd** (**19,0 %**), G'ijduvon **466,4 mlrd** (**9,2 %**), Jondor tumani **319,3 mlrd** (**6,3 %**), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik korxona va mikrofirma sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,8 %** ga o'sishi ta'minlandi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa **32,1 %** ni tashkil etmoqda.



2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish, ming so'm

Shahar va tumanlar	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Buxoro shahar	6772,9	3548,4
Kogon shahar	9405,1	5087,3
Olot tumani	4545,7	1589,6
Buxoro tumani	3399,2	2591,3
Vobkent tumani	2630,8	2206,4
G'ijduvon tumani	2879,5	1548,5
Kogon tumani	7023,8	2943,5
Qorako'l tumani	2383,1	1989,1
Qorovulbozor tumani	351817,2	53144,6
Peshko' tumani	2378,7	1176,1
Romitan tumani	9943,5	1748,6
Jondor tumani	3065,7	1850,0
Shofirkon tumani	1962,2	1133,4
Buxoro viloyati	7638,5	2659,1


2019 yil 1 yanvar holatida Buxoro viloyatida sanoat korxonalari to'g'risida ma'lumot.

(soni birlik)

T/R	Shahar va tumanlar	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan
1	Buxoro shahar	1166	1121
2	Kogon shahar	164	161
3	Olot tumani	114	104
4	Buxoro tumani	315	294
5	Vobkent tumani	152	146
6	G'ijduvon tumani	473	423
7	Kogon tumani	278	272
8	Qorako'l tumani	165	164
9	Qorovulbozor tumani	105	105
10	Peshko' tumani	148	142
11	Romitan tumani	216	213
12	Jondor tumani	263	260
13	Shofirkon tumani	199	183
Jami:		3758	3588

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni , birlik

■ Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni , birlik



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 1237 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning **27,6** foizi Buxoro shahriga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: H.Sadullaev

Tel: 0(371) 230-83-05